O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL
XO'JALIGI VAZIRLIGI

"SHAHARSOZLIK
HUJJATLARINI EKSPERTIZA
QILISH RESPUBLIKA
MARKAZI" DMNING
TOSHKENT VILOYATI
BOSHQARMASI

100011, Toshkent shahri, Abay ko‘chasi, 6-uy, Tel/Faks: 71-203-11-46, E-mail: vilekspertiza@mail.ru, new-ekspertiza.mc.uz

Holati: Ijobiy

Boshqarma boshlig`i: Qambarov Giyosbek Sayfidinovich

Sana: 20-03-2024 yil

YIG'MA EKSPERT XULOSASI

202054 - SONLI

Obyekt nomi: Обьектнинг юридик хужжатга эга қисмини реконструкция қилиш.	
Buyurtmachi:	OMAD-YULDUZI MCHJ
Bosh loyihachi:	"MY-PRO" MAS`ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT
Moliyalashtirish manbai:	Buyurtmachining o'z mablag'lari hisobidan
Bosh pudratchi:	Buyurtmachi tomonidan aniqlanadi.
Qurilish turi:	Rekonstruksiya
Murojaat raqami:	004354

1. Loyihalash uchun asos.

1.1. Loyiha topshirig’i buyurtmachi, “OMAD YULDUZI” MCHJ tomonidan tasdiqlangan, loyiha tashkiloti “PRO UNITI GROUP” MCHJ. tomonidan 2023-yilda kelishilgan.

1.2. Toshkent shahar Qurilish bosh boshqarmasi tomonidan Bin ova inshootlarni rekonstruksiya qilish hamda o’z hududida qo’shimcha bino va inshootlarni qurish uchun 2023-yilning 17-apreldagi 1726280-105055-sonli ruhsatnomasi.

1.3. Toshkent shahar QBB tomonidan 2023-yil 11-maydagi 1726-1726280-66480-sonli Arxitektura-rejalashtrish topshirig’i.

1.4. “GEOLOGY AND PROJECT” MCHJ tomonidan, 2023-yilda bajarilgan, hududning muhandislik-geologik sharoitlari haqidagi xulosasi.

1.5. Nuqson dalolatnomasi buyurtmachi “OMAD YULDUZI” MCHJ tomonidan tasdiqlangan.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar.

2.1. Loyihani ishlab chiqish bosqichidagi “Ishchi loyiha” tarkibi:

- Kitob – Umumiy tushuntirish xati.
- Albom – Ishchi loyiha
- Kitob – Smeta hujjatlari.
- Lokal manbalar ruyxati va zaruriy manbalar ruyxati.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni.

3.1. Qurilish maydonining xususiyatlari.

- Shamol bosimining tezligi – 0.38 кПа (38 кгс/м2);
- Qor qoplamining me'yoriy og'irligi – 0.50 кПа (50 kgs/m2);
- Qurilish hududining seysmikligi – 9 ball;
- Cho'kish bo'yicha tuproq sharoitlarining turi – I (birinchi);
- Maksimal muzlash qatlami chuqurligi – 0.7 metr;

3.2. Bosh reja.

Toshkent shahri, Olmazor tumani, “Moyariq” MFY, Keles yo’li ko’chasi 9B-uy hududida joylashgan mayonida mavjud avtomobillarga yoqilg’i quyish shaxobchasi binosi va navesini qayta qurish, hududlarni obodonlashtrish va ko’kalamzorlashrish ishlari ko’zda tutilgan.

Binoning hajm va rejalashtirish ko'rsatkichlari:

Qurilish maydoni - 240,0 m2
Binoning qurilish hajmi - 1 113,0 m3
Umumiy qurilish maydoni - 201,0 m2

3.3. Me’moriy yechimlar.

Operator binosi; Qurilayotgan bino bir qavatli bo‘lib, shakli to'rtburchak shaklga ega, o'qlardagi o'lchamlari 27,2x7,2 metr qavat balandligi 3,4 metr.

Loyihada mijozlar xonasi, ishchilar xonasi operator xonasi, yuvonish xonasi va boshqa kerakli xonalar joylashtrilgan.

Tashqi bezaklar.

Binoning devorlariga g’ishtdan.
Sokol – itolagrnit.
Eshik romlari va vitraj PVX profillardan.
Devorlari semet-qum qorishmali suvoq, pardozlovchi suvoq, bo’yoq bilan bo’yash.
Tom qoplamasi – temir konstruksiya, progan, profnastil bilan qplangan qoplangan, temir ferma ostidan 70mmli mineral paxta bazalt qoplangan.

Ichki bezaklar.

Pol - keramik plita.
Eshiklar - MDF va PVX profildan.
Devorlar - sement-qum qorishmali suvoq, pardozlovchi suvoq, suv aralashmali bo’yoq.
Shiflari - suvoq, pardozlovchi suvoq, suv aralashmali bo’yoq.

Naves.

Naves o’qlar bo’yicha o’lchamlari 17.0x7.0 metr, balandligi 6.9 metr, temir ustunlarga temir fermalar mustahkamlangan. Ustonlar temir list bilan dizayn asosida qoplangan.

3.4. Konstruktiv yechim.

Operator binosi;

Konstruktiv yechimi – aralash karkaz.
Poydevori – lentasimon quyma temir-betondan, beton sinfi B 15.
Ustunlari – 400x400 mmlik quyma temir-betondan, beton sinfi B 20.
To’sinlari – 400x400 mmlik quyma temir-betondan, beton sinfi B 20.
Seridechni, peremichka quyma temir-betondan, beton sinfi B 15.
Tom yopmasi – temir ferma ustidan pragon yotqizilgan va profnastil qoplangan.

3.5. Yong‘in xavfsizligi.

Binoni aniqlash xususiyatlari:

Qurilish mas'uliyati klassi (normal) - II
Binoning yong'inga chidamliligi darajasi - II
Funktsional yong'in xavfi sinfi - F 4.2

Yong'in xavfi sinfi - C1

4. Loyihalanayotgan obyektning muhandislik ta'minoti.

Talab etilmaydi.

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

5.1. Toshkent shahar qurilish bosh boshqarmasi Loyiha-smeta hujjatlarini kelishish bo'yicha Arxitektura va shaharsozlik kengashi ishchi organining 2023-yil 12-sentabrdagi 93588431-sonli xulosasi.

5.2. Toshkent shahar Favqulodda vziyatlar boshqarmasining 2023-yil 29-maydagi 23/11-2008-sonli xulosasi.

5.3. O'zbekiston Respublikasi tabiat resurslari vazirligi Toshkent shahar boshqarmasi Davlat ekologik ekspertizasining 2023-yil, 9-iyundagi 01-01/04-1125-sonli xulosasi.

6. Ekspertiza natijalari.

6.1. Ishchi loyiha ekspertiza ko'rigiga buyurtmachining arxitektura va rejalashtirish, texnologik, ichki muhandislik, energiya tejamkorlik va boshqa yechimlari bo'yicha e'tirozlarisiz taqdim etilgan.

6.2. Ekspertizadan o'tkazish jarayonida taqdim etilgan lokal sharhlar bo'yicha o'zgartirish, qo'shimchalar va tuzatishlar kiritildi.

6.3. Yer ishlarini bajarishdan oldin, kutilmagan holatlarning oldini olish uchun, mavjud bo'lgan yer osti muhandislik tarmoqlari va kommunikatsiyalarining haqiqiy joylashuvini, mahalliy ekspluatatsiya xizmatlari vakillari bilan aniqlash zarurligi ta'kidlanadi.

6.4. Loyihachi tashkilot Buyurtmachiga o'rnatilgan tartibda ekspertiza tomonidan berilgan taklif va e'tirozlar yuzasidan qabul qilingan ko'rsatmalar asosida (loyihachi tashkilot tomonidan) smeta hujjatlariga tegishli o'zgartirishlarni kiritgan xolda taqdim etishi kerak. Loyihachi tashkilot tomonidan berilgan javoblar uchun mas'ul va javobgardirlar.

6.5. Buyurtmachiga quyidagilar tavsiya etiladi;

- qurilish materiallari (mahsulotlar, tuzilmalar) va jihozlarning narxi mintaqaviy bozorda, shuningdek to'g'ridan-to'g'ri ishlab chiqaruvchilar (etkazib beruvchilar) tomonidan, hamda, birja byulletenlari va qurilish materiallari yarmarkalari, yetkazib beruvchilarning ulgurji narxlari asosida, kataloglardan va boshqa manbalardan aniqlanishi kerak;

-ishchi loyihani tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda barcha manfaatdor tashkilotlar bilan kelishish tavsiya etiladi.

6.6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 17.09.2021-yildagi 579-sonli qarorining III-bob 29-bandiga, ShNQ 1.03.06-13, II bob, 8-bandi muvofiq Davlat ekspertizasiga taqdim etiladigan shaharsozlik hujjatlarining to'liqligi, ma'lumotlarning ishonchliligi yuzasidan buyurtmachiga va qabul qilingan loyiha yechimlari yuzasidan ishlab chiqaruvchi javobgar hisoblanadi.

7. Xulosalar.

7.1. Ekspertiza natijalarini hisobga olgan holda **"Obektning yuridik xujjatga ega qismini rekonstruksiya qilish".** ishchi loyiha kelgusida ko'rib chiqish va kelishishga tavsiya etiladi.

Bosh ekspert: Saidburxanov Saidakbar Saidumar O'g'li.

Ishtirokchi ekspertlar: Turginov Maxkam Erkenovich, Bekbayev Sanjar Qodirjon O'g'li, Abduvaliyeva Nargiza Anarbayevna, Saidburxanov Saidakbar Saidumar O'g'li